




№3
2024



ЎЗБЕКСТАН МАМЛЕКАТЛИК КОНСЕРВАТОРИЯСИ
НОКИС ФИЛИАЛИ

MUSIQ VA SAN'AT AJBO KOTNOHAB | БЕСТННН КУЗННН Н НОКНСТБА | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI**

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI

**ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ**

Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientific-methodical journal

№ 3/2024

XONANDALIKDA IJROCHILIK TAMOYIL VA ME‘ZONLARI

Sharipov A.Sh.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti

Annotaciya: Ushbu maqolada xonandalikda ijrochilik amaliyoti, ijrochilik nazariyasi hamda asarni ijro etish uslub va zarur tamoyillari haqida so‘z boradi. Ijrochilik namunalarini ijro etish ijrochidan yuksak mahorat va chuqur malaka talab etishi, ijrochilik amaliyoti o‘zining mukammalligi, ijrochilikda bir hofizning ijro uslubi va uning aytgan yo‘li ikkinchisiga o‘hshamasligi keng tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Ijrochilik, xonanda, uslub, sheva, asar, mahorat.

Аннотация: В данной статье рассказывается о практике исполнительства, теории исполнительства и необходимых принципах выполнения работы. Широко проанализировано, что исполнение исполнительских образцов требует от исполнителя высокого мастерства и глубокой компетентности, исполнительская практика идеальна, стиль исполнения одного хафиза и манера его речи не похожи на другого.

Ключевые слова: Исполнение, певец, стиль, диалект, произведение, мастерство.

Abstract: This article describes the practice of performance, the theory of performance and the necessary principles of performing work. It has been widely analyzed that the performance of performance samples requires high skill and deep competence from the performer, performance practice is ideal, the performance style of one hafiz and the manner of his speech are not similar to another.

Key words: Performance, singer, style, dialect, work, skill.

Barchamizga ma’lumki, madaniy me’rosimizning eng sermahsul qismini ijrochilik ijodiyoti tashkil etadi. Turli davrlarda uning tarkibiga xalq va bastakorlik ijodiyoti namunalari kirib kela boshlagan. Ularni avloddan-avlodga yetkazish, ularni saqlab qolish uchun amaliyotda ustoz-shogird an’anasi ancha yillardan buyon qo‘llanilib kelinmoqda.

Ijrochilik namunalarini ijro etish ijrochidan yuksak mahorat va chuqur malaka talab etadi. Ijrochilik amaliyoti o'zining mukammalligi bilan bir qatorda xalqchil uslub ham deyishimiz mumkin. Ijrochilikda bir hofizning ijro uslubi va uning aytgan yo'li ikkinchisiga o'hshamaydi. Ma'lum ijrochilik yo'lini har bir ijrochi turli ijrochilar darajasida yoki o'z ijro uslubidan kelib chiqib ijro etishi mumkin. Chunki ijrochi xonandalik yo'llarini puxta va mukammal ijro etishi uchun o'z ovozinig imkoniyatlari doirasida asarga ma'lum o'zgartirishlar kiritadi. Bunda xonanda ovozinig past-balandligiga qarab, ashulada mavjud bo'lgan qismlarni qisqartirib yoki o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Shu tufayli o'zbek-tojik xalqlari musiqashunosligining eng yaqin vazifalaridan biri ijro uslublaridagi sheva masalasini chuqurroq o'rganishdan iboratdir. Ijrochilikda ashula matnlari tez-tez o'zgartirib kelingan. Ijrochilikda ushbu yo'llarga turli vazndagi g'azallar o'qilishi maqomlar matni o'zgarishiga olib kelgan. Ijrochilikda yana bir muhim narsaga e'tibor berish kerakki, har bir ijro yo'li o'ziga xos lad-tonallikda, tonikasi to'g'ri topilib, ijro qilinishi kerak. Agar xonandanig ovoz diapazoni yetmasa, asarni unig ba'zi tayanch bosqichlaridan boshlash mumkin.

O'zbek xalq musiqasining she'riga asoslanib yaratilgan asarlarni ijro etuvchilar qadimda turlicha nomlangan: xonanda, hofiz, ashulachi, qo'shiqchi, yallachi, katta ashulachi, laparchi, deyilgan. Xonandalarning bu xilda nomlanishi ko'p jihatdan o'zbek milliy musiqa san'atining janrlari va shakllari xilma-xilligi bilan bog'liq bo'lgan. Bu har bir ijrochining o'zi tanlagan shu sohada mukammal tajriba va yuksak saviyaga erishganligidan dalolat beradi. Xalq orasida ular to'g'ridan-to'g'ri "Yallachi", "Katta ashulachi", "Baxshi" kabi nomlar bilan aytilgan. Bu nomlar orqali ijrochining qaysi vohada ko'rsatgan faoliyati va (kasbiy) darajasi ko'rsatilgan. Odatda "ijrochilik" musiqiy namuna talqini bilan bog'liq bir qator ichki xususiyatlarni o'zida mujassam etgan va bu jihatlar ijrochilik mezonlari sifatida amaliyotda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Iste'dod, bilim, har tomonlama mukammal ovoz, sozandalik o'quvi, jo'r bo'lish

mahorati, badihago'ylik mahorati, saboq, ijodiy yondashish, to'g'ri so'z talaffuzi, izlanish va doimiy mashq kabi xususiyatlar shular jumlasidandir.

Musika ijrochiligi amaliyotida ana shunday xususiyatlarga imkon darajada ko'proq ega bo'lgan san'atkorgina mumtoz musika namunalarini mukammal talqin etishga qodir bo'ladi. Ijrochi uchun iste'dod-musiqani qalban his etib mazmunli ifoda etishdagi ustunlik bo'lsa, bilim-iste'dodni shu sohaning nazariy ilmi bilan to'ldirishdir. Masalan; musiqiy namunalar haqidagi ma'lumotlar, nazariy jihatlar, janr xususiyatlari, ritm asoslari, lad xususiyatlari, ijro texnikasi, talqin etish mahorati va hokazolar. Ya'ni, musika ijrochiligi ilmini puxta o'zlashtirishi lozim. Ijro talqini esa xonandadan chiroyli, latif va keng diapazonli tarbiyalangan mukammal ovozni talab etadi. Bunda ovozdan to'g'ri foydalanish kerak. Shu bois ayni paytda ijrochilik amaliyotida ijro uchun hofizda keng diapazon, yoqimli ovoz va mukammal ijro texnikasi bo'lishi shart" [1].

Ijrochilik o'tmishdan musika merosimizning turli janrlaridan, ularni xususiyatlaridan kelib chiqib o'ziga xos shakllarda vujudga kelgan.

An'anaviy ijrochilik san'ati o'zbek musika ijrochiligining asosini tashkil etishi barchamizga ayon. Bu haqida bir qator musiqashunos olimlarning risolalarida yetarlicha ma'lumotlar bayon etilgan. Shu bilan birgalikda Xorazm vohasini ham o'zbek musika san'atida, o'zining ijrochilik va xonandalik an'analari bilan o'ziga jalb etib, ijro uslublari bilan tinglovchini o'ziga maftun etishi hammamizga ma'lum. Bu voha aytim yo'llariga boy bo'lib, maqom ijrochiligi doston yo'llari, xalq ommaviy ijrochiliklari o'z yo'nalishlari doirasida yuzaga kelgan. Mahalliy sheva, turmush mezonlari asosida rivojlangan xonandalik an'analariida betakror ovoz imkoniyatlari, jozibali xonishlar va xayratomuz hangu-avjlar hamda beqiyos sehrli ohanglar o'z ifodasini topgan.

Farg'ona vodiysi ijrochilik an'analariida bir qator ijrochilik maktablari mavjud. Ijro maktablari avvalo hududiy ahamiyat kasb etsa, xonandalik amaliyoti rivojlanib borishi davomida shaxsiy ijro uslublari ham yuzaga kelganini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol qilib, Farg'ona vodiysiga xos keng

ommalashgan katta ashula ijrochiligini aytishimiz mumkin. Bunda har bir maktab o'z namoyondalari va ularni ustoz darajasigacha ko'targan ijro uslubi shakllanganligidir. Farg'ona vodiysi ijrochilik an'analarida katta ashula, yallachilik, ijrochilik an'analari amaliyotidan o'rin olgan. Farg'ona ijrochilik maktabi esa boshqa maktablardan farqli o'laroq oddiy sodda shaklda tuzilib, serjilo taronalar sifatida alohida tuzilgan yallalar tushirilganligi sir emas. Qolaversa, Farg'ona vodiysida yuzaga kelgan ijrochilik uslublari va maktablari deyarli barcha viloyatlar va shaxarlar bilan bog'liq. Shaxarlar esa o'z-o'zidan ijrochi ustozlar ijodiga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov.S. Hofizlik san'ati. – Toshkent: Musiqa, 2007.
2. Matyakubov Sh. An'anaviy ijrochilik san'ati tarixi. – Toshkent: Musiqa, 2015.
3. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San'at, 2006
4. Rajabov Is'hoq. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent. 1963.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Allanbaev R.O. QOSÍQSHÍLIQTÍN BÚGINGI KÜNDEGI ÁHMIYETI.....	3
2	Kulchigayeva M. QORAQALPOQ XALQ QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA	10
3	Charshemov J., Muratbaeva R. JANA RUXTAGÍ XALÍQ QOSÍQLARÍ.....	16
4	Charshemov J. XVI-XVII ASRLARDA BALETNING YEVROPADA KLASSIK RAQS TURI SIFATIDA RIVOJLANISHI	22
5	Abatbaeva R. QORAQALPOQ MUSIQA SAN‘ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI.....	28
6	Rasbergenova X.S. MUSIQANING INSON SALOMATLIGIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.....	38
7	Abdisultanov J. QARAQALPAQ MUZÍKASINDAGÍ JANRLÍQ ÓZGESHELIKLER (QARAQALPAQ MUZÍKALÍ DRAMALARDÍN PAYDA BOLÍWÍ HÁM RAWAJLANÍWÍ).....	43
8	Charshemov J., Orazalieva G. BAROKKO DÁWIRINÍN GARMONIYASÍ.....	49
9	Zuxurov M. VIOLONCHEL SAZ ASBABINÍN KELIP SHÍGIWI, ORKESTR HÁM KAMER ANSAMBLERINDE TUTQAN ORNI.....	54
10	Uzoqov D.S. UYG‘UR MUSIQALI TEATRINING MARKAZIY OSIYODA PAYDO BO‘LISHI.....	59

KÓRKEM ÓNER

11	Mamutov P.A. KOMPOZITOR HIKMAT RAJABOV ÓMIRI HÁM DÓRETIWSHILIGI HAQQÍDA.....	65
12	Abdikarimova I. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASINDAGÍ BIRINSHI FLEYTA ATQARÍWSHÍSÍ.....	71
13	Sobirjonov A. O‘ZBEK OPERA XONANDALIGIGA VA MILLIY QO‘SHIQCHILIGIGA ERGASH YO‘LDOSHEVNING QO‘SHGAN HISSASI.....	76
14	Saidxonov A.S. XX ASR YANGI VENA MAKTABI IJODKORLARI TARIXNING YANGICHA KO‘RINISHI.....	80
15	Dauletbaev T.Q. QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN‘ATINING RIVOJIDA G‘AYRATDIN UTEMURATOVNING MEHNATLARI....	90
16	Matimuratov S. QARAQALPAQ KÓRKEM ÓNERINDE XOSH HAWAZ BÚLBÚL TAMARA DOSHUMOVANÍN TUTQAN ORNÍ...	95
17	Ońgarbaeva L. CHANG SAZ ÁSBABINÍN TARIYXÍ HÁM USTAZ ATQARÍWSHÍLARÍ.....	100
18	Sharipov A.Sh. XONANDALIKDA IJROCHILIK TAMOYIL VA ME‘ZONLARI.....	106

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

19	Rajabov X.J. QASHQAR RUBABI BASLANG'ISH SABAQ BARISINDAGÍ TÁLIM MASHQALALARI TIYKARINDA.....	110
20	Abatbaeva U.A. ART-PEDAGOGIKALIQ HÁM ART-TERAPEVTIKALIQ TEXNOLOGIYALAR TIYKARINDA BASLANG'ISH KLASS OQIWSHILARIN ESTETIK TÁRBIYALAW MODEL.....	118
21	Jumaniyazov O'. O'QUVCHILARGA XALQ CHOLG'ULARINI O'RGATISHDA SHARQ ALLOMALARI MUSIQIY RISOLALARINING AHAMIYATI.....	125
22	Любимцева В.С. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ.....	131
23	Matjanova M. OQÍWSHÍLARDÍ ESTETIK TÁRBIYALAWDA ÁMELIY QOLLANIW METODLARÍ, FORMA HÁM QURALLARI...	136
24	Jumabaev A. NOTA OQIW TÁJIRIYBESINDE ATQARIWSHILIQ KÓNLIKPELERIN ÓZLESTIRIW HÁM QÁLIPLESTIRIW.....	143
25	Раджабова Н. АКТИВИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТОНАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ МЕЛОДИИ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ СОЛЬФЕДЖИО....	149
26	Mutalov D.A. YOSHLARNING MA'NAVIY SHAKLLANISHIDA MUSIQANING O'RNI.....	154

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

27	Palimbetov K.S. QARAQALPAQ XALÍQ DÁSTÚR FOLKLORÍNÍN ÚYRENILIW MÁSELESÍ.....	160
28	Bekbergenova Z. 1990-2000-JÍLLARDAĞÍ QARAQALPA AMATURGIYASÍ HAQQÍNDA	168
29	Marziyayev J.K. EKOLOGIK MADANIYAT VA UNI SHAKLLANTIRISH: EKOLOGIK MUAMMONI OLDINI OLISHNING BIR USULI SIFATIDA.....	176
30	Sadenova G.P. KÓRKEM SHÍĞARMALARDA EPITETTÍN QOLLANÍLÍW ÓZGESHELIKLERI HÁM USÍLLARÍ.....	181